

## SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI BOSHQARISHNING ZARURIYATI

**Xudoyberdiyev Shokir Abdiraxmanovich**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarishning dolzarbli va zaruriyati tahlil qilinadi. Ishlab chiqarishning texnologik bosqichlari, resurslardan oqilona foydalanish, mehnat unumdarligini oshirish hamda raqobatbardoshlikni ta'minlashda boshqaruvin tizimining tutgan o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy boshqaruvin yondashuvlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar beriladi. Tadqiqotda ishlab chiqarishdagi uzluksizlik, sifat nazorati va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati alohida ta'kidlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *ishlab chiqarish jarayoni, sanoat korxonalari, boshqaruvin tizimi, samaradorlik, texnologik jarayonlar, mehnat unumdarligi, innovatsiyalar, sifat nazorati, raqobatbardoshlik.*

**Аннотация.** В статье анализируется актуальность и необходимость эффективного управления производственными процессами на промышленных предприятиях. Рассматриваются технологические стадии производства, рациональное использование ресурсов, роль системы управления в повышении производительности труда и обеспечении конкурентоспособности. Даны также предложения по современным подходам к управлению, использованию информационно-коммуникационных технологий и повышению эффективности производства. В исследовании подчеркивается важность преемственности, контроля качества и инновационных подходов в производстве.

**Ключевые слова:** производственный процесс, промышленные предприятия, система управления, эффективность, технологические процессы, производительность труда, инновации, управление качеством, конкурентоспособность.

**Abstract.** *This article analyzes the relevance and necessity of effective management of production processes in industrial enterprises. The technological stages of production, rational use of resources, the role of the management system in ensuring competitiveness are considered. Also, proposals are made on modern*

*management approaches, the use of information and communication technologies and increasing production efficiency. The study emphasizes the importance of continuity, quality control and innovative approaches in production.*

**Keywords:** *production process, industrial enterprises, management system, efficiency, technological processes, labor productivity, innovations, quality control, competitiveness.*

Globallashuv jarayoni, yirik aglomeratsiyalar, o'sish nuqtalari va maxsus iqtisodiy zonalar ko'rinishidagi yangi mintaqaviy markazlarning shakllanishi investitsiyalar, yuqori malakali ishchi kuchi va istiqbolli infratuzilmoyalihalarini jalb etishda raqobatning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Yirik mintaqaviy markazlar hissasiga jahon YAIMning 75 foizi, eksportining 58 foizi, investitsiyalarning 76 foizi to'g'ri kelmoqda. Bu, o'z navbatida, boshqa mintaqalar va mamlakatlarni ham raqobatdoshlikni oshirish, xususan, ularning iqtisodiy, ishlab chiqarish salohiyati hamda qiyosiy ustunliklaridan samarali foydalanishga undamoqda.

Hozirda jahoning yetakchi mamlakatlarida sanoatni rivojlantirishda ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish jarayonini tadqiq etishda ishlab chiqarish salohiyatida innovatsion tarkibiy elementlar salmog'ini oshirish, sanoatning yangi istiqbolli tarmoqlarini ustuvor rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, hududlardagi iqtisodiy resurslarning notekis taqsimlanish holatlari hamda ularning salbiy ta'sirini kamaytirish, hududlararo iqtisodiy munosabatlarni optimallashtirish, turli iqtisodiy subektlarning o'zaro manfaatli faoliyatini yo'lgan qo'yishda klaster tizimidan foydalanish, ishlab chiqarish salohiyatidagi innovatsion tarkibiy elementlar salmog'ini oshirish, sanoatning yangi istiqbolli tarmoqlarini ustuvor rivojlantirish, tarmoqning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, oqilona foydalanish hamda ularni maqsadga muvofiq tartibga solish borasida muhim ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy iqtisodiy islohotlar sharoitida mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish hamda hududlarning boy iqtisodiy salohiyatidan samarali va oqilona foydalanish masalalari muhim o'rinn tutadi. Bu borada "Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish" yo'naliishlari belgilab berildi. Zero, hudud iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning tabiiy, mineral-xom ashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi va mehnat salohiyatidan kompleks hamda samarali

foydalanimish natijasida xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish mumkin.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda hududiy iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017 yil yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari axborot-tahlil departamenti to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori qabul qilingan bo‘lsa, shu yilning fevraliga kelib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli farmoni bilan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” qabul qilindi.

Ushbu strategiyaning uchinchi yo‘nalishi 3.5-bandida “Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanimish” masalasi ko‘zda tutilgan bo‘lib, bunda mintaqalar sanoatini barqaror rivojlantirish, yangi sanoat korxonalarini qurish, eksport va sanoat salohiyatini oshirish orqali hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish obektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish singari qator ustuvor vazifalar belgilandi.

Mazkur vazifalar bilan bir qatorda, hududlarda xo‘jalik yurituvchi subektlarning iqtisodiy manfaatlarini yanada to‘laroq ro‘yobga chiqarish, ishlab chiqarishni maqbullashtirish, ichki tarmoq va tarmoqlararo kooperatsiyani mustahkamlash hamda mahalliy lashtirish jarayonlarini kengaytirish va mazkur soha imkoniyatlaridan samarali, to‘liq foydalanimish, eksportga mo‘ljallangan raqobatbardosh mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, hududlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va shu asosida moddiy farovonlikni oshirish masalalari mintaqaviy iqtisodiy siyosatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatidan oqilona foydalanimish yuqoridaq vazifalarni hal etishda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki sanoat qo‘srimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o‘rnini va ishlab chiqarish lokomotivivazifasini bajarishi bilan boshqa soha va tarmoqlardan tubdan farq qiladi. Hududlarda sanoat tarmog‘ining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur’atlarda rivojlanishiga olib keladi. Sanoat sohasida qazib olingan, ekib o‘stirilgan barcha resurslarni qayta ishslash, ulardan yangidan-yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, assortment va nomenklaturaning ko‘payishi hisobiga diversifikatsiyalashuv jarayonlari takomillashadi.

Rivojlanayotgan va yangi industrial davlatlar tajribasiga ko‘ra, mazkur davlatlardagi iqtisodiy muvaffaqiyatlar ko‘p jihatdan sanoatda, qayta niqsa, qayta

ishlovchi sanoatda chuqur tuzilmaviy o‘zgarishlar bilan izohlanadi.

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, sanoat iqtisodiy o‘sishni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi va aksariyat tadqiqotlardagi mazkur fikr, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan aynan sanoatda innovatsiya va bilimlarning yangi kombinatsiyasidan foydalanish imkoniyatining yuqoriligi bilan izohlanadi. Bu esa mehnat unumdarligi va ishlab chiqarish hajmi oshiga olib keladi, natijada iqtisodiy o‘sish ta’minlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nazarov SH.H. O‘zbekiston mintaqalari raqobatdoshligini oshirishning metodologik asoslarinitakomillashtirish. Dokt. diss. avtoref. T.: 2016. 5 b.
2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Kumri Nomozova. Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
4. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.
5. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsyu uchenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie texnologii. 2025. – c. 581-587.
6. Nomozova Qumri Isoyevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq risklarni sug‘urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. 4-7 b.
7. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomicheskoe razvitiye i analiz, 2024. s. 338-345.
8. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug‘urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.
9. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.
10. Qumri Nomozova. O‘zbekistonda tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug‘urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10

b.

11. Mamadjonov D. O‘zbekiston Respublikasida sanoat tarmog‘ini rivojlantirishning asosiy omillari. // “Biznes-Ekspert” iqtisodiy ilmiy-amaliy oylik nashr. 2018. №10. 3 b.
12. UNIDO. Industrial Development Report 2016. The Role of Technology and Innovation in Inclusive and Sustainable Industrial Development. Vienna, Austria. 2015. <http://www.unido.org>.